



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZITLARNI JALB ETISH MASALALARINING STATISTIK TAHLILINI YORITISH

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya
va buxgalteriya fakulteti

sh.mamayusupova@tsue.uz

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti, Kompyuter ilmlari va dasturlash
texnologiyalari yo'nalishi magistri

maqsudu32@gmail.com

Mavlonova Muxlisa Nizomiddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Matematika va informatika yo'nalishi 2-kurs
talabasi

PhD F.E.Qodirov

Shahrisabz davlat pedagogika institute,
Informatika va uni o'qitish metodikasi
kafedrasini mudiri

***Annotatsiya:** Omonatlar tijorat banklari faoliyatining ajralmas va o'ta muhim tarmog'i hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklarida depozitlarni jalb etish masalalarining statistik tahlilini yoritish hisoblanadi. Ishning obyektida Respublika tijorat banklari olindi. Ilmiy maqolani yoritishda xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlari o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ma'lumotlarni jadvallar asosida analitik taqqoslash, statistik tahlil, mantiqiy va taqqoslama tahlil qilish, ma'lumotlarni guruhlash hamda SWOT tahlil kabi usullardan foydalanildi.*

***Kalit so'zlar:** depozit, omonat, tijorat banki, pul mablag'i, daromad, bank operatsiyasi, markaziy bank, likvidlik.*

KIRISH

Ma'lumki banklar yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb etish bo'yicha samarali siyosat olib borib, zarur takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydilar hamda murakkab moliyaviy- iqtisodiy munosabatlar tizimida o'z funksiyalarini bajarmoqdalar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli farmonida banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi [1], ya'ni



banklarda aholi omonatlarini jalb qilish rejalarining mavjudligi banklarda depozit jalb qilish erkinligi yo'qligi kabi muammoni bartaraf etish lozimligi belgilab berilgan.

Bank tizimining barqarorligi nafaqat mijozlarning xorijiy valyutaga bo'lgan talabini qondirish nuqtai nazaridan, balki depozit bazasi va ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida kutilayotgan sifatli o'zgarishlar nuqtai nazaridan ham muhimdir [2]. Shuning uchun tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb etishda erkinlik vujudga keldi va bank depozitlari foizlari tushishi kuzatildi.

Bunday sharoitda, banklarda depozitlarning jozibadorligini oshirish muammosi va aholining omonatlar foizi kamayishiga qaramay banklarga bo'lgan ishonchini oshirish muammosi vujudga keladi.

Shu o'rinda tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish va kengaytirish borasidagi faoliyatini rag'batlantirish, milliy valyutadagi depozitlar jozibadorligini oshirish va bank tizimidagi dollarlashtirish darajasini pasaytirishga harakat qilishi lozim.

Demak, tijorat banklar korxonalar, tashkilot, aholi va boshqa tijorat banklaridan mablag'larni bank depozitlariga jalb etib, undan turli xil maqsadlarda foydalanishda bank tomonidan olib borilayotgan depozit siyosati bank rahbariyati tomonidan birinchi o'ringa qo'yilmas ekan, pirovardida umumiy holat 1998 yildagi Rossiya va Yevropadagi bank inqirozi holatlarining takrorlanishiga olib kelishi mumkinligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Depozit operatsiyalari – banklarning depozitorlar bilan tuzgan depozit shartnomalari asosida unig maqsadlariga ko'ra muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir [4].

Respublikamizda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklarining depozit operatsiyalarini o'rganishga e'tibor yanada ortmoqda. Tijorat banklarida depozit operatsiyalari to'g'risida ko'plab xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Respublikamiz olimlaridan O.Rashidov, Sh.Abdullaeva, S.Norqobilov, F.Nurmurodov, O.Olimjonov, Sh.Toshmurodov, T.Boboqulov, A.Qodirov, T.Qoraliev, A.Omonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ifodalangan.

Jumladan, professor Sh.Z. Abdullaevaning fikricha, jahon amaliyotida «depozit» deganda, faqatgina saqlash uchun moliya-kredit yoki bank muassasasiga



berilgan pul mablag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlar emas, balki bank omonatlari bilan bir qatorda bojxona to‘lovlari, yig‘imlar, soliqlar va hokazolarni to‘lash uchun kiritilgan badallar ham tushuniladi [5].

Xorijlik olim S.A. Mitsekning fikricha tijorat banklariga jalb qilingan mablag‘larning asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo‘yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag‘ida ma‘lum vaqtgacha saqlanuvchi mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi. Bank depozitlari haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya – kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki pul mablag‘lari tushuniladi [6].

Rossiyalik iqtisodchi olim L.S.Padalkina esa “Depozit tarkibiga faqat muddatsiz depozitlar kiradi” deb e‘tirof etadi [7].

M.V.Romonovskiy va G.N.Beloglazovaning qayd etishicha, “Depozit mijozlar-ning bankka vaqtincha foydalanish uchun bergan mablag‘lari bo‘yicha bank va mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni aks ettiradi” [8].

Depozit operatsiyalarining subektlari sifatida bir tomondan, tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxonalar va tashkilotlari;
- moliya, sug‘urta, investitsion va trust kompaniyalar;
- xususiy korxonalar va tashkilotlar;
- aksionerlik kompaniyalari;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo‘shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadi.

G.S. Panovanning fikricha: «depozitlar - mijozning bankka ma‘lum bir talablari borligini tasdiqlovchi hisoblar yoki bitimlar va shartnomalarga asosan mijozlarning banklarga omonat shaklida qo‘ygan pul mablag‘laridir» [9].

Tijorat banklarining depozit operatsiyalarini boshqarishning muhim nazariy asoslari sifatida Dj.M.Keyns tomonidan yaratilgan nazariyalarni va Keynsdan keyingi davrda yaratilgan qator nazariyalar keltirish mumkin.

Shuningdek Dj.M.Keyns depozitlarning asosiy manbalari sifatida aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning jamg‘armalarini olgan va o‘z navbatida, ular



jamg'armalarining yagona omili daromad ekanligi ko'rsatib o'tgan.

Jamg'arma nazariyasining ikkinchi bosqichi (Dj.M.Keyns, R.Goldemit va boshqalar) jamg'arma funksiyasini tavsiflashda asosiy ko'rsatkichlar daromadlar summasi, iste'mol va jamg'armalarning o'zaro bog'liqligi, ular o'rtasidagi farqlar miqdorini ko'rib chiqqanlar. Dj.M.Keyns tomonidan olg'a surilgan jamg'arma funksiyasining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u jamg'armaning yuzaga kelishida insoniy omillar, sub'ektiv boshqa sabablarni ham ko'rib chiqqan va bu omillar jamg'arma yuzaga kelishida ustuvor ahamiyat kasb etadi deb qabul qilgan.

Bunda D.M.Keyns quyidagi gipotezalarga asoslangan [10]:

1. Olingan daromaddan jamg'arma qilishda yoki uning bir qismini jamg'arma sifatida saqlab qolishda sakkizta asosiy sabab asos bo'ladi. Bular: ehtiyotkorlik, oldindan ko'ra bilish, hisob-kitob qila olish, yaxshilikka intilish, mustaqillik, tadbirkorlik, mag'rurlik va ziqnalikdir. Albatta, bu sabablar bugungi kunda ham o'z ahamiyati va o'rniga ega deb o'ylaymiz.

2. Yuqoridagi rag'batlar iqtisodiy sub'ektlarning xatti-harakatiga bog'liq, boshqacha aytganda, ularning daromad olishi bilan iste'moli ham oshishi mumkin, lekin jamg'arma bo'lishi uchun iste'molning oshishi daromad oshishidan past yuradi.

3. Daromad oshishi bilan iste'mol hajmi nisbatan kamayadi va jamg'arma hajmi oshadi.

D.M.Keyns tomonidan ilgari surilgan g'oyalardan daromadning oshishi bilan jamg'arma kvotasi (salmog'i)ning oshishi to'g'ri ekanligi tasdiqlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Daslab, tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olsak. Birinchidan, tijorat banklari depozit bazasiga ta'sir etuvchi omillardan biri ichki omillardir. Ichki omillar tarkibiga yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, boshqaruv tizimi, tashkiliy tuzilishi, boshqaruvchilar va xodimlar malakasi, ularning ishga munosabati va bank holati (bank obro'si, kapital xajmi, aktivlar sifati va boshqalar)ni kiritishimiz mumkin. Bu omillar bevosita bankka aloqador omillardir.

Tashqi omillarga esa, siyosiy jarayonlar, aholining bankka ishonchi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatiga qo'yilgan talablar, iqtisodiy vaziyatlar,




aholi daromadlari, mintaqaning rivojlanganlik darajasi, inflatsiya, foiz stavkasidagi o'zgarishlar yoqi beqarorlik va boshqa sabablar kiradi.

1-jadval

O'zbekistonda tijorat banklari jalb etgan depozitlar hajmi [11]

Ko'rsatkich nomi	01.01.2020 y., mlrd. so'mda	01.01.2021 y., mlrd. so'mda	o'zgarishi, foizda
Jami depozitlar, shundan:	36 341	58 668	61,4
Milliy valyutadagi depozitlar	26 334	29 843	13,3
Xorijiy valyutadagi depozitlar	10 007	28 825	188

2020 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi 36 341 mlrd. so'mni tashkil etib, shundan 26 334 mlrd. so'mini milliy valyutadagi depozitlar va 10 007 mlrd. so'mini xorijiy valyutadagi depozitlar tashkil etgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga kelib jami bank depozitlari 58 668 mlrd. so'mni tashkil etib, u o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,4 foizga ortganligi, tarkibiy jihatdan esa milliy valyutadagi depozitlar 13,3 foizga ortganligi, xorijiy valyutadagi depozitlar esa 188,1 foizga, ya'ni keskin ortganligi, jami depozitlarning 51 foizi, summada 29843 mlrd. so'mni tashkil etganliginikuzatish mumkin.



1-rasm. O'zbekistonda tijorat banklari jalb etgan depozitlar dinamikasi

Xorijiy valyutadagi depozitlar hajmi oshishining 150,5 foizi yoki 15,1 trln. so'mi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi hisobiga yuz bergan bo'lsa, qolgan 3,7 trln. so'm miqdordagi o'sish xorijiy valyutadagi depozitlar real hajmining



oshishi bilan izohlanadi. Buni 2020 yilda inflatsiya darajasi 14,4 foizni tashkil etganligi, bank depozitlarining eng maksimal darajasi 18-19 foiz bo'lganligi, ya'ni real foiz stavkasining qariyb 3-4 foiz bo'lganligi aholi omonatlarini bankka milliy valyutada jalb etish darajasi kamayganligi bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklariga aholi omonatlarini jalb etishdagi muammoli vaziyatlardan yana biri jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi omonatlari uchun majburiy zaxira talablarining joriy etilganligidir. Ya'ni bir tomondan, tijorat banklari uchun endi jalb etgan aholi omonatlarining bir qismini Markaziy bankda saqlashi bo'lsa, ikkinchi tomondan banklar omonatlar uchun foizlarni ko'tarishni xohlashmaydi. Natijada kam foizli depozitlarga aholi bo'sh pul mablag'larini qo'yishni kamaytirishi mumkin.

2021 yil 1 iyunga qadar amalda bo'lgan majburiy zaxiralar bo'yicha talab va me'yorlar pul-kredit siyosati vositalaridan samarali foydalanishga oid maqsad va vazifalarga to'laqonli mos kelmay, tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish, milliy valyutadagi depozitlar jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotdagi dollarlash darajasini pasaytirish uchun yetarli sharoit yaratib bera olmadi.

Shundan kelib chiqib, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga majburiy zaxiralarni o'tkazish tartibi va normativlari qayta ko'rib chiqildi.

Unga ko'ra, 2021 yil 1 iyundan boshlab, tijorat banklarining Markaziy bankka majburiy zaxiralarni o'tkazish tartibi va normativlariga qo'yidagicha o'zgartirishlar kiritildi:

2-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha amalda bo'lgan va yangi majburiy zaxira normativlari [11]



Majburiyat turi	Yangi normativlar (2021 yil 1 iyundan kuchga kirdi)		2021 yil 1 iyunga qadar amalda bo'lgan normativlar	
	Davr	Normativlar (foizda)	Davr	Normativlar (foizda)
Yuridik shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari	2 yildan ortiq	0	3 yildan ortiq	10,5
	1 yildan	7	2 yildan	12
	2 yilgacha		3 yilgacha	12
	boshqa depozitlar	14	1 yildan	
				2 yilgacha
Yuridik shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	2 yildan ortiq	0	boshqa depozitlar	10,5
	1 yildan	8	3 yildan ortiq	12
	2 yilgacha		2 yildan	
	boshqa depozitlar	16	3 yilgacha	12
Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi omonatlari	2 yildan ortiq	0	boshqa depozitlar	15
	1 yildan	2	2 yildan ortiq	0
	2 yilgacha		1 yildan 2 yilgacha	0
	boshqa majburiyatlar	4	boshqa	0
Jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi omonatlari	2 yildan ortiq	0	majburiyatlar	0
	1 yildan	3	2 yildan ortiq	0
	2 yilgacha		1 yildan 2 yilgacha	0
	boshqa majburiyatlar	6	boshqa	0

Yuridik shaxslarning milliy va xorijiy valyutadagi depozitlari uchun avval muddatiga ko'ra tabaqalashgan 15 %, 12 % va 10,5 % bo'lgan bo'lsa, yangi normativlarga ko'ra bu talablar tushirildi. Ya'ni 2 yildan ortiq muddatga qo'yilgan



miliy va xorijiy valyutadagi depozitlar uchun 0 %, 1 yildan 2 yilgacha bo'lgan milliy valyutadagi depozitlar uchun 7 %, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun 8 %, va boshqa milliy valyutadagi depozitlar uchun 14 %, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun 16 % qilib belgilandi.

Amalda bo'lgan normativlar bo'yicha jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha majburiy zaxira talablari mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2021 yil 1 iyundan tijorat banklari jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha ham milliy valyutadagi 1 yildan 2 yilgacha bo'lgan omonatlar uchun 2 %, 1 yilgacha bo'lgan boshqa majburiyatlar uchun 4 %, 2 yildan ortiq muddatdagi omonatlar uchun 0 % miqdoridagi mablag'larni Markaziy bankda deponentlashi shart bo'ladi. Jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi omonatlari mos ravishda 3 %, 6 % va 0 % miqdoridagi talablar belgilandi.

Demak, bank depozitlarini jalb etishning ham chegaraviy miqdori mavjud bo'lishi lozim. Chunki bankning jalb qilgan depozitlari bankning passivida, ya'ni majburiyat sifatida joylashgan. O'z navbatida bank majburiyatlarini o'z mablag'lari bilan qoplay olish holati doimo muhim sanaladi. Shuning uchun depozit (yoki kredit) multiplikatsiyasining maksimal miqdori yoki chegarasini hisoblash uchun quyidagi matematik formuladan foydalaniladi.

$$D = D_0 * 1/R \quad (1)$$

bunda:

D - bank tizimida shakllantirilishi mumkin bo'lgan depozitning maksimal miqdori;

D₀ - dastlabki depozit;

R - depozit birligiga teng keladigan likvidlik zaxirasi.

Yuqorida keltirilgan misolimizda depozit multiplikatsiyasi koeffitsienti 5 yoki 5000 birlikka ($D = 1000 * (1/2)$), kredit multiplikatsiyasi koeffitsienti esa 4 yoki 4000 birlik ($K = 800 * (1/0,2)$)ka teng.

Multiplikatsiya darajasi majburiy zaxira darajasiga teskari mutanosib ravishda o'zgaradi, demak majburiy zaxira darajasi oshsa, bank tizimining kredit salohiyati imkoniyatlari kamayadi.

Depozit mul'tiplikatsiyasi va kredit ekspansiyasi g'oyasi quyidagi iqtisodiy zaruratni keltirib chiqaradi: har qanday tijorat banki depozitlarni qabul qilish bilan birga, o'z mijozlari oldidagi majburiyatlarini bajarishi uchun uning ma'lumbir qismini



likvidlik zaxirasi sifatida saqlashi lozim. Shu bois tijorat banklarining kredit berish salohiyati miqdori bank tomonidan jalb etilgan moliyaviy resurslar, majburiy zaxira hajmiga bog‘liq.

Bank tizimida depozitlar va aholi omonatlari bo‘yicha belgilangan foiz stavkalari tahlili, ularning 2020 yil davomida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan monetar siyosat chora-tadbirlari ta‘sirida shakllanib borganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, 2020 yilning yanvar-iyun oylarida yuridik va jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha o‘lsangan foiz stavkasi 11,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hisobot yilining ikkinchi yarmida depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining o‘shishi kuzatildi va 2020 yil dekabr oyi yakuni bo‘yicha o‘rtacha o‘lchangan foiz stavkasi 15,3 foizga yetdi.

Mazkur o‘shish, asosan yuridik shaxslarning muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi yilning birinchi yarmidagi 6,4 foizdan yil yakuni bo‘yicha 12,3 foizgacha ko‘tarilishi hisobiga yuz berdi.

Depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarining bunday o‘shishi asosan 2020 yil iyun oyi oxirida valyuta siyosatini liberallashtirishga tayyorgarlik ko‘rish doirasida Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining oshirilishi bilan izohlanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga asoslangan holda tijorat banklarining depozit bazasining mustahkamligiga ta‘sir qiluvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- bankka jalb qilingan mablag‘larning umumiy miqdori;
- Markaziy bank tomonidan belgilangan majburiy zaxira darajasi;
- joriy likvidlikni saqlash maqsadida tashkil qilingan zaxira va undan foydalanish tartibi;
- kredit salohiyati manbalarining tarkibi va barqarorligi;
- bank majburiyatlarining tarkibi va umumiy miqdori kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, milliy valyutadagi aktivlarning xorijiy valyutadagi aktivlarga nisbatan yuqori daromadlilikini saqlab turish, milliy valyutada jamg‘arishni rag‘batlantirish hamda valyuta kursi o‘zgarishi tebranishlari minimal darajada bo‘lishiga erishish orqali milliy valyuta barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan foiz



siyosatining yuritilishi 2020 yil sentabr-dekabr oylarida tijorat banklaridagi aholi mablag'larining oshishiga olib keldi. Jumladan, mazkur davr mobaynida jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi muddatli depozitlari qoldig'ining qariyb 15 foizga oshishi kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, aholining banklardagi muddatli depozitlari dinamikasi Markaziy bankning foiz siyosati yo'nalishlarini aniqlash va ularning ta'sirchanligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, aholining tijorat banklardagi muddatli depozitlari hajmining o'sishi inflyatsion kutilmalarning pasayayotganligi va milliy valyutaga nisbatan ishonchning oshayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, pul massasi oshishining uning tarkibidagi uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish hisobiga ta'minlanishi inflyatsion bosimni jilovlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarida bank depozitlar bo'yicha belgilangan yangi majburiy zaxira normativlari birinchidan, tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish va kengaytirish borasidagi faoliyatini rag'batlantirish, milliy valyutadagi depozitlar jozibadorligini oshirish va bank tizimidagi dollarlash darajasini pasaytirishga xizmat qilsa. Ikkinchidan, o'rta muddatli istiqbolda, pul-kredit siyosati boshqa vositalarining rivojlantirilishi va ularning ta'sir kanallari kuchayib borishi bilan yuridik shaxslar depozitlari bo'yicha majburiy zaxira normativlarini bosqichma-bosqich pasaytirish orqali jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari bo'yicha majburiy zaxira normativlari bir xil darajaga keltirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qarorida 2018 yil 1 apreldan tijorat banklari bilan birgalikda xorijiy valyutaning oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirilishi va xalqaro to'lov kartalaridan pul mablag'larining xorijiy va milliy valyutadagi muddatli omonatlarga o'tkazilishini ta'minlovchi jismoniy shaxslarning hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarish tizimini joriy etish alohida keltirib o'tilgan bo'lsa-da, hali barcha tijorat banklarida bu kabi imkoniyatlar kengjoriy etilmagan. Ya'ni bu boradagi ishlarni jadallashtirish lozim. Binobarin, respublikamizda plastik kartalardan foydalanish ko'lami keskin ortmoqda.



Omonatlar aholi daromadlarining xavfsiz saqlanishini ta'minlash va aholi ishonchini oshirib borish, shuningdek, banklarning resurs bazasini mustahkamlab, investitsion faoliyatini rivojlantirishdek har ikki tomon (bank va mijoz) manfaatlarini ko'zda tutishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun, moliya bozorining asosiy sub'ektlari bo'lgan banklar o'z tijorat faoliyatini olib borishda depozit siyosatini maqsadli yuritishga jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli farmoni.
3. Mirziyoev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil 20 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. – T.: O'zbekiston, 2018, 83-b.
5. Abdullaeva Sh.Z. Ishaning banki, Darslik. -T.: TMI, Iktisod-Moliya, 2020 yil, 732 b.
6. Usmonov M. T. Cryptographic Protection of Information. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 24-26.
7. Usmonov M. T. Electronic Digital Signature. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 30-34.
8. Usmonov M. T. "Equal" And "Small" Relations. Add. Laws Of Addition. International Journal of Academic Information Systems Research (IAISR) ISSN: 2643-9026 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 27-29.
9. Usmonov M. T. Establish Network Protection. International Journal of Academic Engineering Research (IAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 14-21.
10. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. Вестник Таджикского национального университета, (3-6), 237-241.



11. Давлатова, М. (2020). FE'LLARNING ASPEKTIK VA LEKSIK-SEMANTI K TASNIFI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
12. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 475–479. VOLUME03 ISSUE06 PAGES, 39, 47.
13. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. *Интернаука*, (9-2), 76-78.
14. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the English renaissance (XVI c.). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 949-957.
15. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning English with the help of songs. *Теория и практика современной науки*, (4 (34)), 578-581.
16. Давлатова, М. X. (2021). The Expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).
17. Давлатова, М. X. (2021). Результативликнинг аспекти тадқиқотлар доирасида ўрганилиши. *Scientific progress*, 2(2), 1678-1683.
18. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. *Cross-Cultural Studies: Education and Science*, 5(1), 61-67.
19. Давлатова, М. (2020). Aspectual and lexico-semantic classification of verbs. *Сўз санъати халқаро журнали*, 1, 2020.
20. Давлатова, М. X. (2018). Работа над видеотекстом на занятиях английского языка. *Теория и практика современной науки*, (4 (34)), 242-246.
21. Hasanovna, D. M. (2022). On the interrelationship of resultive and causative meanings. *World Bulletin of Public Health*, 9, 212-215.
22. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. *Open Access Repository*, 8(2), 116-121.